

"URUSHNING SO'NGGI QURBONI" VA "MUZQAYMOQ" HIKOYALARIDA URUSH DAVRI

Abduxoliqova Go'zal Alimardon qizi

*O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika Instituti
Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Usarova Laylo

Annotasiya: Mazkur maqolada qatag'on davrining daxshati aks etgan bu kichik hikoyalar urush davrining naqadar insniyat ongiga, ruhiyatiga ta'siri haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tadi

Kalit so'zlar: urush, asar, hikoya, davr, qatag'on, inson, qurbon, daxshat, zamon.

Muzqaymoq va Urushning so'nggi qurboni hikoyalari bir-biri bilan mazmun jihatidan bir xil. Biri ikkisining mantiqiy davomi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ikki hikoyada ham urush haqida, urushning fojiali oqibatlariga olib kelishi haqida.

Darhaqiqat, insoniyat tarixida emg daxshatli qirg'inbarot-ikkinchi jahon urushi-milionlab kishilar yostig'ini quritishdan tashqari, odamlar ongi, ruhiyati, shuuriga ham yomon o'zgarishlar olib kirgan.

Urushning so'nggi qurboni asarida urush daxshati kezib yurgan qorong'u kechada yuragini hovuchlab yotgan ayollar, ota mehriга intizor bolalar, yorug' mana shunday kunlarni intizorlik bilan kutayotgan millionlab "Urush qurbonlari"ning og'ir, mashaqqatli hayoti aks ettiriladi. Xuddiki kitobxon ana shu davrga tushib qolganday, o'sha davrda yashayotganday his qiladi go'yo "Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay hamon sandal olib tashlanmagani, bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i tekkan dasturxon ham bandi kuygan yog'och qoshiq ham"[1.150]

Urush insonlarni qanchalar qashshoq ahvolga olib kelib qo'yganining yaqqol misolidir. Zamon og'irlashgan paytda inson insonlarga yordam berishi bir-birini tushunishi kerak emasmi?! Hammamiz inson deb atalgan ongli mavjudot bo'lsak ammo "Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqiganidan buyon yomon ko'paydi"[2.150]

Oddiy bir jo'xori, qulupnay yoki bugungi kunda minglab davosi topilayotgan kasalliklar insonlar taqdirining zolimi bo'lmoqda. Akani ukaga, bolani otaga bir-biriga dushman qilib qo'yadigan zamon."Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalariga non puli bo'lar deb ekanmiz, norasidalarining nasibasiga tegmang deb bobillab beribdi... Shoikrom o'shanda onasining yoz bo'yi kelini bilan yuz ko'rmas bo'lib yurganini esladida, uyning o'rtasidan devor tortilgani yodiga tushdi"

Yana bir dalili Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasida o'z otasini dushman sanab qizil askarlarga tutib bergan Pavlik Mozorov degan bola qahramonga aylantirilib barcha maktab o'quvchigariga ibrat qilib ko'rsatiladi. Ana shunday targ'ibot ta'sirida asl voqelikni tushunmay yurgan hikoya qahramoni, o'n yoshlik bola, tintuv chog'ida o'z uyida kitob javoni qulfini ochib berib, o'zini Pavlik Mozorov deb maqtashgandan g'ururlanadi. "Kapitanning qiynalayotganini ko'rib, men qo'linga mix oldim-u,

pildirab borib shkafning tortmasini shartta ochib berdim. Kapitana chehrasi yorishib kuldi-da

-- Malades!-- dedi boshimni silab, -- kelgusi Pavlik Morozov chiqadi sendan!"

Yozuvchi har o'n yashar chog'larida otasining qo'rquv va xavotir ichida yurgan kunlari guvohi bo'lgan. Qatag'on siyosati avjiga chiqayotgan pallalar. Barcha tahlikada, bir biridan gumonsiragan davrlar. Bu davrlarni ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, daxshatdan haykalday qotib qolgan ota, burchakda tiqilishib qo'rquvdan bir birini pinjiga kirib olgan ukalari holatini ko'rib, dod-faryod solib yig'layotgan opa tasvirlanganda qatag'on davrining naqadar qo'rqinchli bir hodisa ekanligini tasavvur qilamiz.

Yozuvchi go'yo yaqin do'st, qo'shni bo'lgan kishilarning dushmanga aylanishi, yaxshilik kutmagan odamlardan insoniy samimiy munosabat ko'rganlarini tasvirlab qaltis, sinovli holatlarda kishilarning asl mohiyati namoyon bo'lishini, kishining sirtiga qarab emas qilgan ishi, og'ir vaziyatlarda o'zini qanday tuta olganiga qarab baho berish lozimligini uqtiradi. Bu tariflar xushsurat yigitcha -shahar komsomol qo'mitasi kotibining yozuvchi otasiga qamalguncha xushomad qilib, yurib, musibatdan so'ng yovga aylanib hatto bolani tahqirlashi "Qashqirdan tug'ilgan qashqircha" - deb haqoratlashi shu parchada yaqqol aks etadi.

Sho'ra zamonida o'z otasini dushman sanab qizil askarlarga tutib bergan Povlik Mozorov degan bola qahramonga aylantirilib, barcha maktab o'quvchilariga ibrat qilib ko'rsatilgan.

Ayni chog'da o'g'liga muzqaymoq olib berolmay armonda qolgan otaning haqsizlik tuhmatlar tufayli naqadar ojiz g'arib bir ahvolga tushishi, adolatsizlik hukm surgan jamiyatning qanchalar insonlar qalbini zada qilganini tasvirlab, mehr-oqibat, adolat g'oyillari barqaror bo'lishiga erishish fikri ilgari suriladi. Bizni bu borada ibratli xulosalar chiqarishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Axmedov, R.Qo'chqorov, Sh. Rizayev, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik - majmua, 148-157betlar, ('Ma'naviyat'), Toshkent, 2017
2. Bahoriddinova Shaxzoda (Umumta'lim maktablarida O'tkir Hoshimov hikoyalari tahlili), bitiruv-malakaviy ishi. Toshkent 2018
3. S.Axmedov, R.Qo'chqorov, Sh. Rizayev, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik - majmua, 84-86 betlar, ('Ma'naviyat'), Toshkent, 2017
4. Tafakkur.net. sayti, Toshkent 2020